



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI.....	12
Usmonova Zarina	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI VA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	19
Zaripova Sabrina Zafar qizi	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK TARMOG'IDA INTEGRATSIYALASHGAN MENEJMENT TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA JORIY ETISH: SAMARADORLIK, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR.....	25
Sobirov Shohruh Shuxratovich	
ISTE'MOLCHILAR ORASIDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI QISQA FORMATLI VIDEOKONTENTNING IMPULSIV XARID XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	30
Ra'no Balxiboyeva Davron qizi	
KAPITAL BOZORI ORQALI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH YO'LLARI.....	40
Otabek Oltiboyev	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISHNING YALPI TALAB O'ZGARISHIGA TA'SIRI TAHLILI.....	45
Ochilov Laziz Siddiqovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA YANGI ISLOHOTLARNING MAKROIQTISODIY TAHLILI	54
Sanakulova Iroda Abrorovna	
GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L YAYLOVLARI IXTISOSLASHUVINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QIZILQUM CHO'L YAYLOVLARI MISOLIDA)	61
Kozokov Najmiddin Isomiddinovich	
XALQARO OLIY TA'LIM TIZIMLARIDA UNIVERSITET BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI: INSTITUTSIONAL AVTONOMIYA, HISOBDOIRLIK VA STRATEGIK BOSHQARUV MODELLARI	68
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
THREE GENERATIONS OF REFORM: GOVERNANCE PARADIGMS AND THE MEASUREMENT GAP IN UZBEKISTAN'S SUSTAINABLE DEVELOPMENT TRANSITION	76
Salakhutdinova Yulduz Golibovna	
ГЕНЕРАТИВНЫЙ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНТЕНТ-МАРКЕТИНГА	82
Умарова Нозанин Алишерзода	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	88
Sapayev Abduljalol Odinayevich	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH	96
Berdiboyev Oltinboy Abdiboqi o'g'li	
UMUMIY IQTISODIY MUVOZANAT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI.....	102
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	
РОЛЬ СИСТЕМЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	106
Уралова Сожида Анвар кизи	



JIZZAX VILOYATI TURIZMINING RIVOJLANISH DINAMIKASI, TUZILMASI VA ISTIQBOLLARI (2016–2024-YILLAR)	112
Mamadiyrov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
KREATIV INDUSTRIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	121
Ulug'bekov Sardorbek Ulug'bekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	128
Turdiyev Eralijon Muxtarovich	



TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Turdiyev Eralijon Muxtarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Kreditlash samaradorligini baholashda amaliyotda qo'llanilayotgan an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlarning imkoniyatlari va cheklovlari yoritilib, kredit faoliyati natijadorligini faqat kredit portfeli hajmi, foizli daromadlar yoki muammoli kreditlar ulushi asosida baholash yetarli emasligi asoslab berilgan. Kreditlash amaliyoti samaradorligini ko'p mezonli yondashuv asosida baholash zaruratidan kelib chiqib, moliyaviy natijadorlik, kredit portfeli sifati, kredit riski darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi, operatsion samaradorlik hamda kreditlash jarayonining mijozlarga yo'naltirilganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni yagona tizimda shakllantirish taklif etilgan. Kreditlash samaradorligini baholash mezonlarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash hamda bank kredit siyosatiga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ulardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kreditlash amaliyoti, kreditlash samaradorligi, baholash mezonlari, ko'rsatkichlar tizimi, kredit portfeli, kredit riski, kredit portfeli sifati, moliyaviy samaradorlik, operatsion samaradorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi, kredit siyosati.

Аннотация. Исследованы научно-теоретические и методические аспекты оценки эффективности практики кредитования в коммерческих банках. Рассмотрены возможности и ограничения традиционных финансовых показателей, применяемых при оценке эффективности кредитования, и обоснована недостаточность оценки результативности кредитной деятельности исключительно на основе объема кредитного портфеля, процентных доходов или доли проблемных кредитов. Исходя из необходимости применения многокритериального подхода к оценке эффективности практики кредитования, предложено формирование единой системы показателей, характеризующих финансовую результативность, качество кредитного портфеля, уровень кредитного риска, эффективность использования ресурсов, операционную эффективность, а также степень клиентоориентированности процесса кредитования. Раскрыты возможности группировки критериев оценки эффективности кредитования по их экономическому содержанию, определения взаимосвязей между ними и их использования при принятии управленческих решений в области кредитной политики банка. На основе результатов исследования разработан научно-методический подход, направленный на совершенствование системы критериев и показателей оценки эффективности практики кредитования.

Ключевые слова: коммерческий банк, практика кредитования, эффективность кредитования, критерии оценки, система показателей, кредитный портфель, кредитный риск, качество кредитного портфеля, финансовая эффективность, операционная эффективность, эффективность использования ресурсов, кредитная политика.

Abstract. The scientific, theoretical, and methodological aspects of assessing the efficiency of lending practices in commercial banks are examined. The capabilities and limitations of traditional financial indicators used to assess lending efficiency are considered, and the inadequacy of evaluating lending performance solely on the basis of loan portfolio volume, interest income, or the share of non-performing loans is substantiated. Given the need for a multi-criteria approach to assessing the efficiency of lending practices, an integrated system of indicators reflecting financial performance, loan portfolio quality, credit risk level, resource utilization efficiency, operational efficiency, and the degree of customer orientation in the lending process is proposed. The possibilities of grouping lending efficiency assessment criteria according to their economic content, identifying the interrelationships among them, and applying them in managerial decision-making related to a bank's credit policy are explored. Based on the research findings, a scientific and methodological approach aimed at improving the system of criteria and indicators for assessing the efficiency of lending practices is developed.

Keywords: commercial bank, lending practices, lending efficiency, assessment criteria, system of indicators, loan portfolio, credit risk, loan portfolio quality, financial efficiency, operational efficiency, resource utilization efficiency, credit policy.



KIRISH

Tijorat banklari faoliyatida kreditlash amaliyoti bankning daromadliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bank kreditlari iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: "Biznesni qo'llab-quvvatlashning eng muhim instrumenti – bu moliyaviy xizmatlar. Biz tadbirkorlarga moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha qattiq ishlayapmiz", deb ta'kidlagan [1]. Mazkur fikr banklarning kreditlash faoliyati iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, banklar tomonidan kreditlar hajmining oshirilishi kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashda qo'shimcha sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini anglatadi. Kredit portfelining o'sishi jarayonida kredit sifati, muammoli kreditlar dinamikasi va kredit riski darajasiga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Shu sababli kreditlash samaradorligini baholashda kredit portfeli hajmi va foizli daromadlar bilan cheklanmasdan, kreditlarning sifati, qaytuvchanligi va risklilik darajasini ham hisobga olish zarur.

Mazkur masalaning dolzarbligi zamonaviy kreditlash amaliyotiga yangi yondashuvlarning kirib kelishi bilan yanada ortmoqda. Xususan, 2025-yildagi ochiq muloqotda kredit ajratishda an'anaviy kredit tarixidan tashqari, soliq va kommunal to'lovlar intizomi, rasmiy aylanma hamda eksport operatsiyalarini hisobga oluvchi muqobil skoring modelini joriy etish vazifasi belgilangan [1]. Bu kreditlash samaradorligini baholashda faqat yakuniy moliyaviy natijalarni emas, balki kredit qarorlarining sifati va qarz oluvchini baholash mexanizmlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Kreditlash amaliyoti samaradorligi bank tomonidan kredit resurslarini joylashtirish natijasida olingan iqtisodiy samaraning ushbu faoliyat bilan bog'liq risklar va xarajatlar bilan o'zaro nisbatida namoyon bo'ladi. Bunda kredit portfelining daromadliligi, muammoli kreditlar ulushi, kreditlarning qaytuvchanligi, kredit resurslaridan foydalanish darajasi va kredit operatsiyalariga sarflangan xarajatlar muhim baholash ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy bank amaliyotida kreditlash jarayonining operatsion samaradorligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kredit arizasini ko'rib chiqish muddati, kredit qarorini qabul qilish tezligi, qarz oluvchining kreditga layoqatlilikini baholash sifati, kredit monitoringi hamda xizmat ko'rsatish xarajatlari kreditlashning umumiy natijadorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli kreditlash samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda operatsion ko'rsatkichlarni ham hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashda moliyaviy samaradorlik, kredit portfeli sifati, risklilik, resurslardan foydalanish va operatsion samaradorlik mezonlarini o'zaro bog'liq holda aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish zarur. Bunday yondashuv kreditlash faoliyatining real natijadorligini aniqlash, takomillashtirish imkoniyatlarini o'z vaqtida belgilash hamda bank kredit siyosatini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholash masalasi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida kredit portfeli sifati, kredit riski, rentabellik, operatsion samaradorlik, kapitaldan foydalanish hamda muammoli kreditlarni boshqarish nuqtayi nazaridan keng o'rganilgan. Mazkur ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish kreditlash samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini takomillashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari

Allen N. Berger kreditlash samaradorligini baholashda muammoli kreditlar va bankning xarajatlar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. A.N. Berger va R. DeYoung tadqiqotida muammoli kreditlarning ko'payishi bank boshqaruvi sifati va xarajatlar samaradorligi bilan uzviy bog'liq ekanligi asoslangan. Ularning yondashuviga ko'ra, kredit portfeli sifatidagi o'zgarishlar kredit riski darajasi bilan bir qatorda bankning qo'shimcha monitoring, undirish va boshqaruv xarajatlari ham ta'sir ko'rsatadi [2]. Shu jihatdan, kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashda muammoli kreditlar ulushi bilan bir qatorda kreditlarni boshqarish bilan bog'liq operatsion xarajatlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Robert DeYoung ham kredit portfeli sifati va bank operatsion samaradorligini o'zaro ajralgan ko'rsatkichlar sifatida emas, balki bir-biriga ta'sir qiluvchi iqtisodiy jarayonlar sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Berger va DeYoung tomonidan shakllantirilgan "bad management" yondashuviga ko'ra, boshqaruv samaradorligi darajasi xarajatlar hamda kreditlarni tanlash va monitoring qilish sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin [1]. Bu qarash kreditlash samaradorligi mezonlari tarkibiga operatsion samaradorlik va kredit monitoringi sifatini ham kiritish zarurligini ko'rsatadi.



Franco Fiordelisi bank samaradorligini risk va kapital omillari bilan o'zaro bog'liq holda baholash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. F. Fiordelisi, D. Marques-Ibanez va P. Molyneux Yevropa banklari misolida samaradorlik, kapital va risk o'rtasidagi vaqtlararo munosabatlarni tadqiq etib, bank samaradorligidagi o'zgarishlar uning risk darajasiga, riskdagi o'zgarishlar esa samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlaganlar [3]. Mazkur yondashuvga ko'ra, kreditlash samaradorligini baholashda daromadlilik ko'rsatkichlarini kredit riski va kapital bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari bilan birgalikda qo'llash zarur.

Dimitrios P. Louzis kredit portfeli sifatini baholashda muammoli kreditlarning umumiy ko'rsatkichi bilan bir qatorda, ularni kredit turlari va ularga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha farqlash zarurligini asoslaydi. D.P. Louzis, A.T. Vouldis va V.L. Metaxas tadqiqotlarida muammoli kreditlarning shakllanishiga makroiqtisodiy sharoit bilan bir qatorda bankka xos omillar ham ta'sir qilishi hamda ushbu ta'sir biznes, iste'mol va ipoteka kreditlari bo'yicha farqlanishi ko'rsatilgan [4]. Ushbu yondashuv kreditlash samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini kredit segmentlari kesimida differensial tahlil qilish zarurligini anglatadi.

Bernd Engelmann kredit samaradorligini riskka moslashtirilgan ko'rsatkichlar asosida baholashni taklif etadi. B. Engelmann va H. Pham tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda kreditning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda foizli daromad bilan bir qatorda qarz oluvchining defolt riski, kredit bo'yicha xarajatlar va bank kapitaliga qo'yiladigan talablar ham hisobga olinishi zarurligi ko'rsatiladi. Mualliflar RAROC tamoyiliga asoslangan baholash tizimini kreditni berish bosqichidayoq qo'llash mumkinligini asoslaydilar [5]. Ushbu qarash kreditlash samaradorligini baholashda riskka moslashtirilgan daromadlilik ko'rsatkichlarining alohida mezon sifatida qo'llanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari

O'zbekistonlik iqtisodchi olim Sh.Z. Abdullayeva kredit portfelining iqtisodiy mohiyatini kredit risklari bilan bog'liq holda talqin qiladi. Uning yondashuvida bank kredit portfeli turli kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlar bo'yicha guruhlangan bank talablarining yig'indisi sifatida qaraladi. Ushbu qarash A.A. Azlarova va M.M. Abduraxmanova tomonidan Sh.Z. Abdullayevaning "Bank risklari va kreditlash" asariga tayangan holda keltirilgan [6]. Mazkur yondashuv kreditlash samaradorligini baholashda kreditlarni faqat hajmi va muddati bo'yicha emas, balki risk darajasi va sifat mezonlari asosida tasniflash zarurligini ko'rsatadi.

A.A. Azlarova va M.M. Abduraxmanova tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning pirovard maqsadi risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishishdan iborat ekanligini asoslaydilar. Mualliflar kredit portfeli samaradorligini oshirishda aktivlar sifatini doimiy monitoring qilish, e'tibor talab etuvchi holatlarni dastlabki bosqichda aniqlash, kredit portfelini diversifikatsiyalash, kredit risklarini boshqarish va kredit portfeli tarkibining bank kredit siyosatiga muvofiqligini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydilar [7]. Ushbu ilmiy qarash kreditlash samaradorligi ko'rsatkichlari tizimida risk, daromadlilik, likvidlilik, diversifikatsiya va aktivlar sifati mezonlarini birgalikda qo'llash uchun muhim metodik asos yaratadi.

I.R. Toymuhamedov kreditlash samaradorligini oshirishni bank infratuzilmasi, kreditga layoqatlilikni baholash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan bog'laydi. I.R. Toymuhamedov va U.X. Elbusinova kreditlash mexanizmini rivojlantirishda masofaviy kreditlash usullarini kengaytirish, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini zamonaviy dasturiy vositalar yordamida tahlil qilish hamda reyting va skoring tizimlarini joriy etishni taklif qiladilar [8]. Mazkur qarash kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashga kredit arizasini ko'rib chiqish tezligi, avtomatlashtirish darajasi, skoring tizimlaridan foydalanish va xizmat ko'rsatish sifati kabi operatsion ko'rsatkichlarni kiritish zarurligini asoslaydi.

X.E. To'qsonov kredit portfeli sifatini baholashni bir nechta o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar asosida amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Uning A.T. Normurodov bilan olib borgan tadqiqotida kredit portfelining sifatini belgilovchi asosiy omillar sifatida diversifikatsiya, risk darajasi, to'lov intizomi va aktivlar rentabelligi ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, kredit portfeli sifatini oshirishda zamonaviy risk-menejment, raqamli texnologiyalar va bank xodimlari malakasini rivojlantirish muhimligi qayd etilgan [9]. Bu yondashuv kreditlash samaradorligini baholash mezonlarini moliyaviy natijalar bilan bir qatorda portfel sifati va tashkiliy omillar bilan kengaytirishni taqozo etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda kreditlash amaliyotining alohida tarkibiy elementlari – daromadlilik, kredit riski, muammoli kreditlar, portfel sifati, likvidlilik, operatsion xarajatlar, kapital, diversifikatsiya va kredit monitoringi chuqur o'rganilgan. Ushbu mezonlarning barchasini tijorat banklari kreditlash amaliyoti samaradorligini baholovchi yagona tizimga birlashtirish mazkur yo'nalishdagi ilmiy-uslubiy yondashuvlarni yanada rivojlantirish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda kreditlash amaliyoti samaradorligini moliyaviy samaradorlik, kredit portfeli sifati, risklilik, resurs samaradorligi, operatsion samaradorlik va mijozlarga yo'naltirilganlik mezonlari asosida tizimli baholash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish uchun tahlil, sintez, taqqoslash, guruhlash, koeffitsiyentlar va mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanildi. Kreditlash samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar moliyaviy samaradorlik, kredit portfeli sifati, risklilik, resurs va operatsion samaradorlik mezonlari bo'yicha tizimlashtirildi. Tadqiqotning axborot bazasini Markaziy bank ma'lumotlari, tijorat banklari hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashda kredit portfelining hajmi, uning o'sish sur'ati va foizli daromadlar muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Biroq ushbu ko'rsatkichlar kredit faoliyatining haqiqiy samaradorligini har tomonlama ifodalash uchun qo'shimcha sifat ko'rsatkichlari bilan to'ldirilishi lozim. Kreditlash hajmining oshishi bilan bir vaqtda kredit risklari, muammoli qarzdorlik va ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun shakllantiriladigan rezervlar ham ortishi mumkin. Shu sababli kreditlash samaradorligini baholashda kredit portfeli hajmi, uning sifati, risklilik darajasi, daromadlilik va resurslardan foydalanish natijadorligi o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi lozim (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashning takomillashtirilgan mezonlari va ko'rsatkichlar tizimi¹

Baholash mezonlari	Asosiy ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichning iqtisodiy mazmuni	Samaradorlikka ta'siri
1. Moliyaviy samaradorlik	Kredit portfeli daromadlilik; sof foiz marjasi; kreditlardan olinadigan sof daromad	Kreditlarga joylashtirilgan mablag'larning daromad yaratish qobiliyatini ifodalaydi	Ko'rsatkichning oshishi ijobiy
2. Kredit portfeli sifati	NPL ulushi; muddati o'tgan kreditlar ulushi; muammoli kreditlarning rezervlar bilan qoplanish darajasi	Kreditlarning qaytuvchanligi va portfel sifatini tavsiflaydi	NPL ulushining kamayishi va qoplash darajasining oshishi ijobiy
3. Risklilik darajasi	Kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar; rezervlarning kredit portfeliga nisbati; kredit konsentratsiyasi	Kredit faoliyati natijasida bank zimmasiga olinayotgan risklarni ifodalaydi	Riskning maqbul darajada bo'lishi ijobiy
4. Resurs samaradorligi	Kreditlarning jalb qilingan resurslarga nisbati; resurslar qiymati; kredit resurslari aylanuvchanligi	Jalb qilingan moliyaviy resurslardan foydalanish natijadorligini aks ettiradi	Resurs qaytimining oshishi ijobiy
5. Operatsion samaradorlik	Bitta kreditga to'g'ri keladigan operatsion xarajat; kredit arizasini ko'rib chiqish muddati; Cost-to-Income Ratio	Kreditlash jarayonining tashkiliy va xarajatlar bo'yicha samaradorligini ifodalaydi	Xarajatlar va muddatlarning qisqarishi ijobiy
6. Kapital samaradorligi	Kredit riskiga yo'naltirilgan kapital qaytimi; kapital yetarliligi; riskka tortilgan aktivlar samaradorligi	Kredit riskini qoplash uchun band qilingan kapitaldan foydalanish natijasini ko'rsatadi	Kapitalning riskka mos qaytimining oshishi ijobiy
7. Mijozlarga yo'naltirilganlik	Kredit olish muddati; takroriy kredit oluvchilar ulushi; kredit xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi	Kredit mahsulotlarining mijoz ehtiyojlariga mosligi va xizmat ko'rsatish sifatini ifodalaydi	Tezlik, qulaylik va mijozlar barqarorligining oshishi ijobiy

Taklif etilgan jadvaldagi yondashuvning amaldagi baholash tizimidan asosiy farqi kreditlash samaradorligini faqat moliyaviy natija yoki kredit portfeli sifati bilan cheklamasdan, yettita o'zaro bog'liq mezon asosida baholashdan iborat. Ushbu mezonlarning har biri kreditlash faoliyatining alohida yo'nalishini ifodalaydi, ularning birgalikda qo'llanishi esa kreditlash amaliyotining umumiy natijadorligi bo'yicha yanada to'liq xulosa chiqarish imkonini beradi.

Mazkur masalani "O'zmilliybank" AJ misolida ko'rib chiqish kreditlash samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish zaruratini yanada aniqroq ko'rsatadi. Bankning rasmiy moliyaviy hisobotlari 2021–2025-yillar bo'yicha MHXS hamda milliy buxgalteriya standartlari asosida muntazam e'lon qilib borilgan (2-jadval).

1 Muallif ishlanmasi

“O‘zmilliybank” AJ kredit portfeli va kredit riskini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar dinamikasi²

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Brutto kredit portfeli, trln so‘m	74,03	89,41	99,42	108,01	105,38
Kredit portfelining yillik o‘sishi, %	–	20,77	11,20	8,64	–2,44
Kreditlar bo‘yicha rezervlar, trln so‘m	3,12	4,47	7,06	7,48	5,94
Rezervlarning brutto kredit portfeliga nisbati, %	4,21	5,00	7,10	6,93	5,63

Yuqoridagi 2-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, “O‘zmilliybank” AJning brutto kredit portfeli 2021-yildagi 74,03 trln so‘mdan 2024-yilda 108,01 trln so‘mgacha oshgan. 2021–2024-yillarda kredit portfelining umumiy o‘sishi qariyb 46 foizni tashkil etgan. 2025-yilda esa portfel 105,38 trln so‘mni tashkil etib, yillik o‘zgarish –2,44 foizga teng bo‘lgan. Shunga qaramay, 2025-yildagi kredit portfeli 2021-yilga nisbatan 42,3 foizga yuqori bo‘lib qolgan. Ushbu hisob-kitoblar bankning rasmiy hisobot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan amalga oshirilgan.

Kredit portfeli hajmidagi o‘zgarish kreditlash samaradorligiga yakuniy baho berishda boshqa sifat ko‘rsatkichlari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Buni kreditlar bo‘yicha shakllantirilgan rezervlar dinamikasi ham ko‘rsatadi. Rezervlarning brutto kredit portfeliga nisbati 2021-yildagi 4,21 foizdan 2022-yilda 5,00 foizga va 2023-yilda 7,10 foizgacha oshgan. 2024-yildan boshlab mazkur ko‘rsatkich pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2025-yilda 5,63 foizni tashkil etgan.

Mazkur tendensiya muhim uslubiy xulosaga olib keladi. Xususan, 2022–2023-yillarda kredit portfelining kengayishi bilan bir vaqtda rezerv yukining ham ortishi kreditlash hajmining o‘shishini samaradorlikning boshqa ko‘rsatkichlari bilan uyg‘un holda baholash zarurligini ko‘rsatadi. Kredit portfeli o‘shishi bilan bir qatorda uning risklilik darajasi ham muntazam nazorat qilinishi lozim. 2024–2025-yillarda rezerv koeffitsiyentining 7,10 foizdan 5,63 foizgacha pasayishi portfel bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar yukining nisbatan kamayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, rezerv koeffitsiyentidagi mazkur o‘zgarishni kredit sifati dinamikasi bilan kompleks baholash uchun NPL, qayta tuzilgan kreditlar va ularning qoplanish ko‘rsatkichlarini ham qo‘shimcha tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, kreditlash amaliyoti samaradorligining zamonaviy mezonlari moliyaviy natijalar bilan bir qatorda operatsion va texnologik ko‘rsatkichlarni ham qamrab olishi lozim. “O‘zmilliybank” AJda skoring va onlayn imkoniyatlarning joriy etilishi natijasida 2023-yilda jismoniy shaxslarga kredit ajratish jarayoni soddalashtirilgan va 122 ming nafar jismoniy shaxsga chakana kreditlar berilgan. Bank kredit konveyerlari, raqamli kredit mahsulotlari va kredit risklarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirishni ham rivojlantirgan. Ushbu holat kreditlash samaradorligini baholash tizimida operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini quyidagi o‘zaro bog‘liq mezonlar asosida baholash maqsadga muvofiq:

- moliyaviy samaradorlik – kredit portfeli daromadliliigi va kreditlardan olinadigan sof daromad;
- kredit portfeli sifati – NPL, muddati o‘tgan kreditlar va rezervlar bilan qoplanish darajasi;
- risklilik – kredit yo‘qotishlari va rezervlarning kredit portfeliga nisbati;
- resurs samaradorligi – kreditlashga jalb qilingan resurslarning qiymati va ulardan olinadigan iqtisodiy natija;
- operatsion samaradorlik – kredit arizasini ko‘rib chiqish muddati, bitta kreditga to‘g‘ri keladigan xarajat va kredit jarayonlarining avtomatlashtirilish darajasi.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kreditlash samaradorligini baholashda kredit portfelining mutlaq hajmi va o‘shish sur‘ati bilan bir qatorda ko‘p mezonli baholash tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda kredit portfelining kengayishi uning daromadliliigi ortishi, kredit sifati barqaror saqlanishi, risklar maqbul darajada boshqarilishi hamda kreditlashga sarflanadigan resurs va operatsion xarajatlar optimallashtirilgan sharoitda samarali natija sifatida baholanishi lozim.

Shunday qilib, “O‘zmilliybank” AJning 2021–2025-yillardagi ko‘rsatkichlari kreditlash samaradorligini “kredit hajmi – kredit sifati – risk – resurs – operatsion natija” o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv kreditlash faoliyatining nafaqat miqdoriy o‘shishini, balki uning sifat jihatdan barqaror va iqtisodiy samarali rivojlanishini ham baholash imkonini beradi.

² “O‘zmilliybank” AJning 2021–2025-yillardagi rasmiy moliyaviy hisobotlari va biznes-reja ijrosi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan va hisoblangan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashda kredit portfeli hajmi, uning o'sish sur'ati yoki foizli daromadlar kabi an'anaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda qo'shimcha sifat va samaradorlik mezonlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Kreditlash samaradorligi bank tomonidan ajratilgan kreditlarning daromadliligi, kredit portfeli sifati, risklilik darajasi, resurslardan foydalanish natijadorligi hamda kreditlash jarayonining operatsion samaradorligini o'zaro bog'liq holda baholash asosida aniqlanishi lozim.

"O'zmilliybank" AJning 2021–2025-yillardagi kreditlash ko'rsatkichlari tahlili kredit portfeli hajmining o'sishi bilan kredit riskini tavsiflovchi rezervlar darajasi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa kreditlash hajmining oshishini samaradorlikning boshqa muhim ko'rsatkichlari bilan uyg'un holda baholash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Kredit portfeli kengayishi bilan bir qatorda uning sifati, qaytuvchanligi va risklarni qoplash imkoniyatlari ham muntazam nazorat qilinishi zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kreditlash samaradorligini ko'p mezonli baholash tizimini joriy etish. Bunda moliyaviy samaradorlik, kredit portfeli sifati, risklilik, resurs samaradorligi va operatsion samaradorlik ko'rsatkichlarini yagona tizimda baholash maqsadga muvofiq.

2. Kredit portfeli sifatiga ustuvor ahamiyat berish. Kreditlash samaradorligini baholashda kredit portfeli o'sishi NPL, rezervlar darajasi, kreditlarning qaytuvchanligi va kredit yo'qotishlari bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim.

3. Daromadlilikni risk bilan uyg'un holda baholash. Kreditlardan olinadigan foizli daromadlar kredit risklari va ehtimoliy yo'qotishlarni hisobga olgan holda tahlil qilinishi zarur. Bu bank kredit faoliyatining real iqtisodiy natijadorligini aniqlash imkonini beradi.

4. Resurslardan foydalanish samaradorligini alohida mezon sifatida kiritish. Kreditlash uchun jalb qilingan mablag'larning qiymati, ularning aylanuvchanligi va kredit operatsiyalaridan olinayotgan iqtisodiy natija o'rtasidagi nisbat muntazam baholab borilishi kerak.

5. Operatsion samaradorlik indikatorlarini kengaytirish. Kredit arizasini ko'rib chiqish muddati, bir kreditga to'g'ri keladigan operatsion xarajat, avtomatlashtirilgan scoring va monitoring tizimlaridan foydalanish darajasi kreditlash samaradorligining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi lozim.

6. Bank ichki boshqaruv tizimida kreditlash samaradorligi bo'yicha doimiy monitoring mexanizmini yaratish. Bunda kredit portfeli dinamikasi, daromadlilik, risk va operatsion ko'rsatkichlar yagona axborot panelida kuzatib borilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, kreditlash amaliyoti samaradorligini baholashda "kredit hajmi – daromadlilik – kredit sifati – risk – resurs – operatsion natija" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga oluvchi tizimli yondashuvni qo'llash tijorat banklarining kredit siyosatini takomillashtirish, kredit portfeli sifatini oshirish va bankning barqaror moliyaviy natijalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. – Toshkent, 2025-yil 20-avgust. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. Berger A.N., DeYoung R. Problem Loans and Cost Efficiency in Commercial Banks // Journal of Banking & Finance. – 1997. – Vol. 21, No. 6. – P. 849–870.
3. Fiordelisi F., Marques-Ibanez D., Molyneux P. Efficiency and Risk in European Banking // Journal of Banking & Finance. – 2011. – Vol. 35, No. 5. – P. 1315–1326.
4. Louzis D.P., Vouldis A.T., Metaxas V.L. Macroeconomic and Bank-Specific Determinants of Non-Performing Loans in Greece: A Comparative Study of Mortgage, Business and Consumer Loan Portfolios // Journal of Banking & Finance. – 2012. – Vol. 36, No. 4. – P. 1012–1027.
5. Engelmann B., Pham H. Measuring the Performance of Bank Loans under Basel II/III and IFRS 9/CECL // Risks. – 2020. – Vol. 8, No. 3. – Article 93.
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2002. – 304 b. – Mazkur manbaning bibliografik ma'lumotlari va muallif qarashlari A.A. Azlarova hamda M.M. Abduraxmanova tadqiqotida keltirilgan.
7. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2018. – № 6.
8. Toymuhamedov I.R., Elbusinova U.X. O'zbekistonda samarali bank infratuzilmasi va kreditlash jarayonlari istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – № 3.
9. To'qsonov X.E., Normurodov A.T. Kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarini baholashning nazariy asoslari // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – № 13.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>